

ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК
МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ XIII



2 imperatives and 2 non-finite (-ed participle). This count leads to the much used aphoristic sentences in Arabic poetic aphorisms respectively. Aphorism is a statement of truth or opinion expressed in a concise and witty manner. The term is often applied to philosophical, moral and literary principles. To qualify as an aphorism, it is necessary for a statement to contain a truth revealed in a terse manner. Aphoristic statements are quoted in writings as well as in our daily speech. The fact that they contain a truth gives them a universal acceptance. Scores of philosophers, politicians, writers, artists and sportsman and other individuals are remembered for their famous aphoristic statements. Aphorisms often come with a pinch of humor, which makes them more appealing to the masses. Proverbs, maxims, adages and clichés are different forms of aphoristic statements that gain prevalence from generation to generation and frequently appear in our day-to-day speech.

Common Aphorism Examples

Let us look at some aphorism examples:
 Youth is a blunder; Manhood a struggle; Old age regret. [Benjamin Disraeli]
 Pride hath fall. [Proverb]

The man who removes a mountain begins by carrying away small stones. [William Faulkner]

Life's Tragedy is that we get old too soon and wise too late. [Benjamin Franklin]

Yesterday is but today's memory, and tomorrow is today's dream. [Khalil Gibran]

The simplest questions are the hardest to answer. [Northrop Frye]

A proverb is no proverb to you till life has illustrated it. [John Keats]

Words are, of course, the most powerful drug used by mankind. [Rudyard Kipling]

Used literature:

1. I.I.Akramov. - The aphorism and the aphoristic style of communication.
2. I.I.Akramov, - The special signs, properties and characteristics of the aphorisms.
3. I.I.Akramov, - Aphorism as an object of linguistic research.

IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARI

S.S. Kurbanov Buxoro davlat universiteti

Kitob — buyuk boylik, inson undan foydalana olguniga qadar.
A.A.BLOK

Har qanday kitob insonning tafakkurini oshirishga dunyoqarashini kengaytirishga yordam beruvchi vosita hisoblanishi barchaga ayon. Bu borada kitobni noyob qurol sifatida qabul qilish mumkin. Kitob mutoala qilgan sayin o'quvchining atrofdagi voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati boshqalarnikidan, ya'ni kitob bilan oshno bo'lmagan qatlamdan tubdan farq qiladi. Kitob hech

qachon insonlar uchun dushman yoki yomon yo`lga yetaklovchi nodon maslahatchi bo`lmagan. Biz kitob o`qish foydali degan bilan shu kunlardagi hayotimizda kitobning o`rni qanchalik ekanligini bir tafakkur qilib ko`raylik. Hozirgi tig`iz taqvimli hayotda kitob o`qish uchun vaqt ajratish qanchalik o`rinli? Bunday savol berishdan maqsad teart, kino, istirohat bog`lari va turli kungil ochar joylarning ko`pligi insonlarni kitob o`qishdan chalg`ituvchi omillar sarasiga kiradi. Kitob insonni tarbiyalaydi. Ushbu gapimizni isboti sifatida bir necha kitoblarni misol qilib olishning o`zi kifoya deb o`ylaymiz.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G`azzoliy o`zining ilmiy merosi islom sivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi bilan o`ziga munosib joy egallagan betakror shaxsiyat bo`lib, sharqda Hujjat ul-Islom va Hujjat ul-Haq rutbasi bilan mashhur, Islom olamining buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanadilar. U kishining boy ma`naviyatimiz merosi, ilm-fanga qo`shgan hissasi beqiyosdir. Olim o`zlarining asarlarida o`z davrida muhim sanalgan barcha sohalarida ilmiy, amaliy mulohazalar olib borib, o`sha sohalar rivojiga hissa qo`sha oldi va bu bilan inson dunyoqarashining yangidan-yangi qirralarini kashf etishga musharraf bo`ldi, bu esa o`z o`rnida olimning insonlar xotirasiga abadiy qolishiga sabab bo`la oldi desak, mubolag`a qilmagan bo`lamiz.

Imom G`azzoliy o`zlarining 53 yillik qisqa umri davomida yuzlab asar yozgan bo`lsada ularning barchasi ham bugungi kungacha to`liq yetib kelmagan. Asarlarning aksariyat qismi islom dinining turli tarmoqlariga ta`luqli bo`lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega. Mazkur asarlar tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvuf va irfon olimlari uchungina emas, oddiy odamlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Chunonchi faqihlar G`azzoliyning «Basit», «Vajiz», «Vosit» kabi asarlaridan, mufasssirlar, kalom ilmining olimlari «Qavoid al-aqoid», «Ar-risolat al-qudsiya», «Al-iqtisod fil-e`tiqod» singari kitoblaridan, mutasavviflar va umuman barcha haqiqat oshiqhlari «Ihyo ulum ad-din» nomli buyuk asaridan bahramand bo`lsalar, katta ruhiy quvonchni boshdan kechiradilar

Ushbu maqolada Allomaning Ayyuhal-valad asarlarini o`zbek tilidagi tarjimasi asosida tahlil qilishni o`z oldimizga maqsad qilib oldik. 2005 yilda Yo`ldosh Eshbek tomonidan Ey farzand deb tarjima qilingan asarda farzand tarbiyasining barcha bosqichlari, oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzandlarning o`zaro muomala madaniyati, farzandlarning ota-onaga qavm-qarindoshga, o`zini atrofidagi barcha do`st birodarlarga munosabatlarni amalga oshirishi haqida maslahat, yo`l yo`riq berilgan va ushbu berilgal maslahatlarga rioya qilgan har bir o`quvchi dunyoviy diniy ilmlarni egallashda, tarbiyada yetukdarajaga yetishiga zanim yaratadi.

Asarning pand-nasihat, odob-axloq qoidalaridan iboratligini kitobning Islom olamining musulmonman degan har bir ummati bilishi kerak bo`lgan **Rahmon va Rahim bo`lgan Alloh nomi bilan boshlayman, ya`ni “Bismillahir Rohmanir Rohiym”** so`zlari bilan boshlanadi. Asar bir necha bo`limlardan iborat bo`lib, **Birinchi bo`limga kiruvchi odoblarga** kiyinish odoblarini

yaxshi bilish. Shuningdek eshik ochish, hojatini o`rinlatish, tozalanib hojatxonadan chiqish, tahorat olib masjidga borish, namoz o`qish, masjiddan chiqish va uyiga yoki ish joyiga kirish, odamlar bilan uchrashish kabilar kiradi. Bundan tashqari Islomda har bir oyning qanchalik muqaddasligiga urg`u berilib, Rajab, Sha`bon va Ramazon oylariga xos odoblar haqida ma`lumotlat keltirilgan. Masalan, asarda oylarning fazilati haqida misollar keltirilib, jumladan, Ramazon oyining fazilati haqida quyidagilar keltirib o`tiladi;

Ey, farzand! Ramazon oyi ro`zani barcha a`zolar bilan tutmoq zarur. Faqat shundagina ramazon ro`zasi mukammal tutilgan bo`ladi. Hazrati Payg`ambarimiz (s.a.v.) Abu Hurayra(r.a.) hazratlariga shunday marhamat etadilar: «Ey, Abu Hurayra! Ro`za tutganingda beparvo bo`lib iftor qilishni kechiktirma. Ummatimning xayrlisi vaqti kirishi bilan iftorini kechiktirmaganidir. Albatta, saharga tursang, saharlik qilishga, taomlanishga beparvo bo`lma. Chunki saharda qancha rahmat va barokat bor. Ummatimdan ramazon ro`zasini mukammal tutganlarning mukofotini Alloh o`z fazl va karamidan beradiki, buning o`lchovi va buyukligini hech kim bilmaydi». Qudsiy bir hadisda shunday marhamat etilgan: «Ro`za Mening roziligimni qozonmoq uchun tutiladi. Uning mukofotini ham faqat O`zim bilaman». Ro`za faqat Alloh uchun tutiladi. Ibodatlarining eng fazilatlisi namoz o`qimoq, undan keyin ro`za tutmoqdir.

Ey, farzand! Ramazon oyida qadr kechasi bor. Qadr kechasidagi ibodat ming oydan, ming oylik ibodatdan xayrlidir. G`aflatda qolma. Bu fursatni qo`ldan berma. Aksincha, bu muborak kechada avval yo`qotgan fursatlaringni, boyliklaringni qayta qo`lga kiritish imkoni bor. Bu nodir va noyob bir baxtdir. Albatta, bu yana niyat, ishonch, ixlos, samimiyat, bir so`z bilan aytganda, muhabbatga bog`liq. Muhabbat yaxshiliklar, go`zalliklarga yo`l topadi. Alloh muborak kechalarini ibodat bilan kechirguvchi ogoh va bedorlarga muhabbat ato etgan bo`lsa ne ajab: Qanday go`zal baxt bu!

Ota-ona islom dinida yetuk martabaga egalar qatoriga turadi va ularha hurmat-ehtirom ko`rsatish, ularga xizmat ko`rsatish jannatga eltuvchi yo`l deb uqtirib kelinadi. Bu orqali esa farzand tarbiyasi to`la-to`kis namoyon etiladi. Asarda bu quyidagicha ifodalanadi:

Ey, farzand! Eng avvalo, onaga juda e`tiborli bo`lish kerak. Uni ranjitadigan so`z va harakatlardan tiyilmoq lozim. Alloh Musoga (a.s.) shunday dedi: «Ey, Muso! Bir kishi ota-onasiga qarshi chiqib, tili bilan ularni va yoki ulardan birini xafa qilsa, o`sha kishining tilini kes (tiy, to`xtat)! Har qanday bir a`zosi bilan ularga yoki ulardan biriga ozor bergan farzandning o`sha a`zosini kes!» Kimki ota-onasini rozi qilib, ularning xayrli duolarini olsa, o`sha kishi uchun jannatdan ikki eshik ochiladi. Ota-onasi rozi bo`lmagan kishi uchun esa jahannamdan ikki eshik ochiladi. Ota-ona farzandga nisbatan zulm qilsalar ham ularga qarshi turilmaydi, qarshi chiqilmaydi. Chunki Alloh taolo Musoga (a.s.) shunday dedi: «Ey, Muso! Gunohlar ichra shunday bir gunoh borki, og`irligi

dunyodagi togʻlarning ogʻirligicha keladi». «Allohim! Oʻsha qanday gunoh?!» deb soʻradi Muso (a.s.). Alloh taolo marhamat etdi:

«Ota-onasi yoki ulardan biri chaqirganda, farzand javob bermasligi!» Alloh taoloning gʻazabidan qoʻrquvchi kishi ota-onasini ranjitmaydi, qanday qilib boʻlsa ham— ilojini topib, ularning koʻnglini, roziligini va duolarini oladi. Hatto xafa qilsalar ham, farzand ularga qarshi bosh koʻtarmaydi, ularning istaklariga, koʻngillariga qaraydi. Agar ular yanglish, xato va harom ishni taklif etsalar, ularga buni juda muloyim tarzda bildirishi, ishontirishi va ogohlantirishi lozim boʻladi. Ota-ona ozor bersa, ranjitsa, ogʻir soʻz aytsa ham darhol qoʻllarini oʻpib, yumshatish, duolarini olishga kirishish kerak. Ularga sovgʻalar berish ularni sevintirish va koʻngillarini topishning eng qulay yoʻlidir. Ota-ona kekxa boʻlsa, ularga yordam berish va yolgʻiz qoldirmaslik kerak. Boshqalarning ular bilan yengil-yelpi muomalalariga yoʻl qoʻymaslik, xizmatlarini toʻla ado etish uchun qoʻldan ne kelsa bajarmoq lozim. Farzand kichik paytida ota-ona unga qoʻl-qanot boʻldilar. Yemadilar, yedirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yoʻq, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar. Ota-onaning duoibadi — yoydan uchgan oʻq, orqaga qaytmaydi. Nishonga tegadi. Vayron qiladi... Ota-onasi rozi boʻlgan farzanddan Alloh ham rozi boʻladi. Ota-ona kechirmagan farzandni Alloh gʻazabiga oladi.

Paygʻambarimiz (s.a.v.) bir hadisi shariflarida shunday dedilar: «Jannat — onalar oyogʻi ostidadir». Bu hadisning majoziy maʼnosi. Paygʻambarimiz maʼnoni ummatga ramzli, qisqa, badiiy va goʻzal bir tarzda yetkazmoqdalarki, aqli bor odam buni anglaydi. Oyoqdan murod — onaning roziligi, jannatdan murod — Allohning roziligidir. Boshqacharoq aytganda «Onaning rizoligini olsang, Allohning rizoligi (jannat)ga yetgan boʻlasan!» Jannatga kirishga loyiq boʻlish uchun ota-ona roziligini olish zarur. Ularni xushnud va xursand qilish zarur. Alloh taolo Musoga (a.s.) marhamat etdi: «Ey, Muso! Ota-onasiga yaxshi muomalada boʻlib, ularning roziligini olgani holda Menga osiy boʻlgan qulimni Men yaxshi qullarim qatorida yozaman. Aksincha, Menga qullik xizmatida qusuri boʻlmasa ham, ota-onasiga yaxshiliklar qilmay, yaxshi muomalada boʻlmay, ota-ona roziligini olmagan qulimni esa osiylar qatorida yozaman!» Ey, farzand! Rasululloh (s.a.v.) shunday marhamat etadilar: «Ota-onaga yaxshilik qilish, ularning xizmatlarida boʻlish namoz, roʻza, haj va jihoddan ham savobliroqdir». Yana shu mavzuda Rasululloh (s.a.v.) marhamat etadilar: «Ota-onasiga yaxshiliklar qilib, yaxshi muomalada boʻlib, ularni mamnun etgan kishining umri barakali, uzun boʻladi. Aksincha, ularni ranjitib, xafa qilgan kimsaning umri qisqa boʻladi». Qiyomat kun eng ogʻir jazolanuvchilar ota-onasini ranjitganlar boʻladi. Oʻsha dahshatli kunda Alloh rahmatidan ularni uzoq qiladi.

Koʻrinib turibdiki, tahlil qilinayotgan asarda islom dinining yetuk namoyondalari, hadisnavislarning hadislarini, va ular bilan bogʻliq hayotiy voqealar chiriqli va shunchalik oddiylik bilan tasvirlanganki, ularni tushunish idrok etish har qanday oʻquvchi uchun ham oson kechadi.

МУНДАРИЖА

Расулов З.И. АХБОРОТ ДИСКУРСИВ ТАҲЛИЛ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	3
Ҳайдаров Анвар Аскарлович. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ТАҚЛИДИЙ СЎЗЛАРНИНГ КОННОТАТИВ МАЪНОЛАРИ.....	6
А.Б.Кобилова. ВОҚЕЛИК ОБЪЕКТИНИ ПЕРИФРАСТИК СИНОНИМЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАШ	11
Джураева З.Р. ВЛИЯНИЕ ГЕНДЕРА НА ЯЗЫКОВУЮ СИСТЕМУ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ.....	14
N.S.Qobilova, N.Azimova. MAQOL VA IBORALARDA KIYIM-KECHAK LINGVOKULTUREMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	16
Джураева З.Р. ОСОБЕННОСТИ МИФОТВОРЧЕСТВА В РАССКАЗАХ БОРХЕСА	18
Mustafojeva Nodira Erkin qizi. INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARI VA ULARDA EMOTSIONALLIKNING IFODALANISHI.....	21
Sattorova Maftuna Shavkatovna. M.H. ABRAMSNING “ A GLOSSARY OF LITERARY TERMS ” LUG'ATINING ETIMOLOGIK TAHLILI	24
Ahmedova Gulmira Oxunjon qizi. SIYOSIY NUTQDA METAFORANING ISHLATILISHI.....	28
Rahima Norova. SONLAR SEMANTIKASI VA MADANIYATI XUSUSIYATLARI	31
Nazarova NavbahorAhrorovna, Malikova Zarnigor. IMPORTANCE OF SKILLS IN LEARNING LANGUAGES.....	34
Nazarova Navbahor Ahrorovna, Mirshayeva Nilufar. CHET TILINI O'RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	37
Nazarova NavbahorAhrorovna, Latipova Sevara. THE ROLE OF WRITING SKILL IN FOREIGN LANGUAGES	39
Navruzova N.X. KONNOTATIV MA'NONING MORFOLOGIK VOSITALARDA IFODALANISHI.....	41
Н.Джумаева. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИДА СЕҲРЛИ УЙ- РЎЗҒОР БУЮМЛАРИ ОБРАЗИ ТАҲЛИЛИ.....	44
Vaxidova Fotima Saidovna, Dehqonova Sayyora. ZIYORAT TURISTIK TERMINLAR O`ZLASHUVINING INTRALINGVISTIK OMILLARI VA TARIXIY-ETIMOLOGIK MANBALARI	47
Джураева З.Р. ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В РУССКИХ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ	50
I.I.Akramov. THE CONCEPT OF APHORISMS IN A LANGUAGE	54
S.S. Kurbanov. IMOM G`AZZOLIY ASARLARIDA FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARI.....	56
Navbahor Nazarova. ANTROPONIMLARNING LEKSIK TIZIMDA TUTGAN O`RNI.....	60